

TASVIRIY SAN'AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI

Ismatullayeva Shaxrizoda Shuhrat qizi

*GulDPI Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi yo'nalishi 26-22 guruh talabasi*

R.Z.Xayrov

Ilmiy rahbar: p.f.f.d. dotsent

Anotatsiya: *Ushbu malady tasviriy san'atning tur va janrlari O'zbekistonda tutgan o'rni haqida ma'lumot berilgan. Aslini olganda tasviriy san'atning turlari juda ko'p hisoblanadi. Ular o'z ichiga badiiy adabiyotlar, tasviriy san'at, musiqa, kino, teatr, me'morchilik, xoreografiya, amaliy bezak, ka'bi san'at turlarini ham o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning tur va janrlarini bilmaslik haqiqiy ijodkor bo'laolmaslikdan dalolatdir.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, tur va janrlari, portret, manzara, natyurmort, haykaltaroshlik, kompazitsiya.*

KIRISH

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohalarda turli hil istiqbolli loyihalar, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartiryapti desam mubolag'a bo'lmaydi. Bunday ezgu jarayonni madaniyat va san'at rivojiga, ijod ahliga ko'rsatilib kelayotgan yuksak e'tibor misolida ham ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan san'at xususan tasviriy san'atni o'rganar ekanmiz, biz avvalo tasviriy san'atning maqsad vazifalarini hamda tasviriy san'atning mohiyati, tur va janrlari haqida bilmog'imiz lozim. Ushbu maqolada ham bu haqida fikr yuritimiz.

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayoning taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zalik hissi ortdi, qulaylik va foydalilik tushunchasi kengaydi. Bu esa fan va jamiyat san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'atning o'ziga hos hususiyatlari shundan iboratki xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlarini o'z asarlarida namoyon etadi. Aslida san'atning turlari juda ko'p. Ular badiiy adabiyotlar, musiqa, teatr, kino, me'morchilik, amaliy bezak va boshqalar. Bu san'at turlarining o'z ijodkorlari mavjud. Har biri o'z tarixi, rivojlanish xususiyatlariga ega.

Insonning his-tuyg'ulari, kechinmalarini tasavvur va hayolarini chiziq, rang, oq-qora bo'yoqlarda, hajmli yoki hajmsiz, rang yoki rangsiz shakllarda biror yuza yoki makonda aks ettirish san'atida tasviriy san'at deb ataladi. Tasviriy san'at asarlarini tasvirlash uslubi, tasvirlash uchun tanlangan materiallarga qarab grafika, rang tasvir, haykaltaroshlik, turlariga, tanlangan ob'yekti mazmuni va yo'nalishiga qarab janrlarga ajratiladi. Bular: tabiat manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar -manzara janri, odamlar qiyofasini aks ettiruvchi rasmlar portret janri deb nomlanadi.

Grafika tasviriy san'atning keng tarqalgan va eng ommabop turi hisoblanadi. Oddiy qora qalamdan chizilgan surat, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli badiiy chizma va bezak va rasmlar, yo'l chiptasi odan tortib murakkab rasmiy pul va loteriya qog'ozlarida, plakat, etiketika, turli markalar ham grafika san'atining ko'rinishlari hisoblanadi. Grafika asarlari qo'lda qalam yoki shunga o'xshash (ko'mir, qalam, pero, sangina, sous, flomaster, va boshqalar) ishlanishi, bosma uslubda bajarilishi ham mumkin. "Grafika" lotincha so'z bo'lib, "yozaman, rasm ishliman" degan ma'noni anglatadi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir. Gravyura fransuzcha so'z bo'lib, "kesish" ma'nosini anglatadi. Metalda tayyorlanadigan gravyurani offort, yog'ochdagisini kisilegrafiya, linovumdagisini linogavyura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi.

Rangtasvir- asosan bo'yoqlar vositasida matoga, devorga shuningdek tekkislikni va yuzalariga ishlanadigan sa'at turi hisoblanadi. Tasviriy san'atning bu turida ijodkorning ichki kechilmalari, ranglarni bir biriga me'yorida qo'shib ishlatilishi natijasida namoyon bo'ladi. Rang tasvir san'ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o'zalashtirishda, balki uni idrok qila bilishda ham o'quvchidan muayyon tayyorgarlikni talab etadi. Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud: dastgohlik rangtasvir, monumental rangtasvir, dekorativ rangtasvir, teatr-dekorativ rangtasvir.

Dasgohli rangtasvir deganda rassomlarning maxsus asbob-dasgoh (molbert) yordamida ishlaydigan suratlari tushuniladi. Dasgohli rangtasvir asarlari katta bo'lmagan o'lchovda mato, karton, oyna, faner kabi tekkis yuzali materiallarga turli bo'yoq akvarel, guash tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi. Bunda ko'pincha moybo'yoqdan qo'llaniladi. Monumental rangtasvir atamasi monumental (maxobatli), ya'ni katta o'lchovdagi, rang tasvir ma'nosini anglatadi. U ko'p hollarda binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo'yog'i yordamida ishlanadi. Monumental rangtasvirning freska, mozayka, vitraj, panno kabi turlari mavjud. Dekorativ rangtasvir me'morchilik va amaliy san'at bilan bo'g'liq bo'lib asosan bezash vazifasini o'taydi (dekorativ so'zining ma'nosi ham lotincha bezash deganidir). Rangtasvirning turlaridan hisoblangan miniatyura san'ati fransuzcha- miniature, italyanacha- miniature, lotincha- minium so'zidan olingan, kinovar surik ma'nosini bildiradi.

Haykaltaroshlik hajmli, yo'rug' soyaga ega bo'lgan shakllar majmuasida maklonda yoki biror yuzada tasvirlanadigan san'at turi haykaltaroshlik hisoblanadi. Haykaltaroshlik asarlari o'z ko'rinishiga ko'ra, dumaloq va qavariq, bo'rtma (relief) haykallarga bo'linadi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rishimiz mumkin. Relyef fransuzcha yuza ma'nosini anglatadi. Relyef o'z navbatida goralyef va barelyefga bo'linadi. Me'morchilik san'ati bilan bo'g'liq bo'lgan haykaltaroshlik asarlari monumental haykaltaroshlikka kiradi.

Tasviriy san'at portret, natyurmort, manzara, tarixiy animal afsosonviy marina turmush kabi janrlarga bo'linadi. Portret janri inson qiyofasini ichki psixologiya olami bilan bo'g'liq holda aniq, bir obrazda yaratilishiga aytiladi. Portretda kishilarni chexasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlanadi. Unda odamlarning boshi, beligacha yoki

bo'yi-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Portret rassomlar tomonidan naturani kuzatish, xotiradan yoki shaxsni fotosidan shuningdek, arxiv materiali va adabiy tasviridan, o'lgan odamlarni kalla suyagini o'lgan odamlarni kalla suyagini o'lgan odamlarni kalla suyagini o'rganish asosida yaratiladi. Dastlabki portretlar Qadimiy Yunonistonda mil.a.v. VII-V asarlarda yaratilgan. Bu janrda Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Mikellanjelo, XVIII asrlarda O.Renuar, P.Pikasso, I.Repin, XXasr o'zbek rassomlaridan A.Abdullayev, Ch.Axmadvov, V.Kaydarov kabilar samarali mehnat qilganlar.

Natyurmort- fransuzcha "jonsiz tabiat" degan ma'nolarni anglatadi. Odamlar hayotida ishlatiladigan, ko'pincha turmushda zarur bo'lgan turli buyumlar, mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parranda va mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya'ni natyurmort san'atida insonning maishiy hayoti aks ettiriladi. Natyurmort XVI asrning oxirlariga kelib, mustaqil janr sifatida shakllandi. XVI asrning oxirlariga kelib, mustaqil janr sifatida shakllandi. XVII asrga kelib, Gollandiya va Flandiya, XVIII asrda esa Fransiya tasviriy san'atida keng tarqaldi. Ma'lumki, har bir rassom tasviriy san'at sirlarini o'rganishni albatta natyurmort ishlashdan boshlaydi.

Manzara janri- Go'zal ona tabiatning turli ko'rinishlarini san'at aks mahurat bilan aks ettirganlar. Yevropada manzara XVI-XVII asrlarda taraqqiy etgan. Gap manzara janri haqida ketar ekan, manzaraning mohir ustalari Klod Loren, Shishkin, Levitan, N.Karaxon, Islandiyor Haydarov O'. Tansiqboyev va boshqalar ijodini bu borada misol keltirish mumkin.

Tarixiy janrda- uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hosisalar, tarixiy shaxrslar, xalqlarni turmush madaniyatlari tasvirlanadi. U uyg'onish davrida buvujudga kelib, XIX asr ms san'atida keng rivojlangan. Rus san'atida bu janrning ko'zga tashlangan namoyondalaridan biri V.L.Suriko edi. U qator ajoyib (o'qchilar qatil etilgan tong) kabi asarlarni yaratdi. Rassomlarning tarixiy janrda ilgari surgan asosiy maqsadni xalqning o'tmishida boshidan kechirganlarini ko'rsatish edi. Tarixiy mavzudagi asarlarga tarixiy musavvir M.Nabiyevning (Eski maktab) asarini misol keltirishimiz mumkin.

Batal janri- "batal" fransuscha so'z bo'lib , "jang" , ochib urish ma'nosini bildiradi. Tarixiy urush voqealarini, xarbiy urush manzaralarini aks etiruvchi janr. Batal janr mavzusi jihatidan tarixiy janrga yaqin turadi. Jang bilan bevosita bo'g'liq bo'lgan tarixiy voqealarni ham ko'rsatadi. Rassomlardan M.Grekov, G.Savidskiy, A.Deneyka, R.Rizamammedov (Muqanna quzg'oloni) , T.Sodiqov (To'marisning qasosi), shu kabi asarlarni bunga yorqin dalil sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Maishiy janr – tasviriy san'atda kishilarning kundalik hayotida, turli voqealarni o'zida mujassamlashtiradi. Rangtasvir aks ettiruvchi maishiy janr XVII asrda ijod etgan Golland rassomlari asarlari – Piter de Xox, Ostade, Stent, kabilar ijodida namoyon bo'lgan. Rus realist rassomlaridan P.Fedatov, V.Perov, V.Maksimov kabilar maishiy janrning rivojiga katta hissa qo'shganlar. O'zbek rassomlaridan R.Ahmedov, M.Saidov, Z.Inog'omov, R.Choriyevlar ham ushbu janrda barakali ijod etib kelmoqdalar.

Animalistik janr- o'zgacha tasviriy san'at turidir u lotincha (anima) – hayvonot olami degan ma'noni bildiradi. Animalist – rassom hayvonot dunyosiga katta qiziqish

sevgi va mahurat bilan yondashdilar. Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyat kasb etgan. Usha davrda ular g'orlarning devorlarida kiyik, qotos, mamuntlarni suratlarini chizganlar. Qadimiy Yaponiyada Hitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiylardan hisoblangan.

XULOSA

O'zbek amaliy san'ati ham tasviriy san'at kabi keng ko'lamda rivojlanib kelmoqda. Shu bilan birgalikda katta shuhrat qozonmoqda, sariq va qizil misdan yasalgan uy ro'zg'or buyumlari juda nozik did bilan shaklanib bezatiladi. Bezatilgan mis asboblari Buxoro, Xiva, Samarqand, Qarshi shaharlarida ko'proq yasatiladi.

Kashtachilik san'atida kishilarning portretini aks ettirish ham paydo bo'ldi. Bu ham tasviy san'atning yanada taraqqiy etishiga yo'l ochib berdi. O'zbek xalqi ipak yetishtirishda mohir bo'lib qolmay, balki shohi atlasni to'qigan, uni nihoyatda yuqori badiiy did bilan bo'yay olgan. Tasviriy san'atning keng ko'lamda shaklanishida rassomlarimizning mehnatlari juda katta hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qish metodikasi- T.: "Fan va texnologiya", 2012,8-7 bet
2. N.Oyidinov . Tasviriy san'at tarixi -T.: "Ijod" Nashriyot uyi- 2007
3. N.Abdullayev . O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent-2007